## QORAQALPOQ XALQINING LOCHINI

**Davletboyev Davron Yenderbayevich**
"G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi boshlig'ining o'rinbosari, polkovnik

Mamutov Xudaybergen

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oddiy qaraqalpoq yigiti Xudoybergen Mamutovning qisqa ammo sermazmun jangovor yo'li, uning jasorati xaqida bayon qilinadi. U Il-2 shturmchi samolyoti bort o'qchi-radisti sifatida 23 marotaba jangovor parvozlarni muvofaqqiyatli amalga oshirganligi, natijada dushmanning 7 tanki, harbiy yuk ortilgan 11 ta avtotransporti, 3 zenit qurilmasini yakson qilganligi, bitta Bf rusumida 109 Messershmitt jangovor samolyotini, 300 dan ortiq soldat va ofitserlarini yer tishlatganligi, 1943-yilning 7-sentyabrida esa jangovor oparatsiyani bajarish vaqtida ekipaj bilan kapitan GOSTELLOning jasoratini takrorlab qahramonlarcha halok bo'lganligi ifodalanadi.

**Kalit so'zlar:** *Ikkinchi jahon urushi, aviatsiya polki, IL-2 shturmchi samolyoti, aviaqurilma mexanigi, ekipaj, havo o'qchi-radisti, eskadrilya, taran.*

Dastlab, Mamutov Xudaybergen xaqidagi ma'lumotlarni topish juda qiyin kechdi. Shundan so'ng u bilan bir ekipajda jang qilgan, bevosita uning komandiri bo'lgan aviatsiya katta leytenanti Fedyakov Ivan Lavrentyevich[59] xaqida ma'lumotlarni izlashga kirishdik. Ko'plab arxiv xujjatlarini ko'rib chiqish natijasida qahramonimiz xaqida bir qator ma'lumotlarni aniqladik va ularni Sizning xukmingizga havola qilayapmiz.

Ikkinchi jahon urushi qahramoni, aviatsiya kichik leytenanti Qoraqalpoq xalqining mard-pahlavon o'g'loni, samo lochini Xudoybergen Mamutov 1915-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani, Chimboy shahrida oddiy xizmatchi oilasida tug'ilgan.



1925-1929-yillarda U Chimboy maktab-internatida o'rta ta'limni olganidan so'ng 1929-1932-yillarda Samarqand pedagogika texnikumini, 1932-1935-yillarda Toshkent qishloq xo'jaligi texnikumida o'qib o'rta maxsus ta'limga ega bo'ladi.

1935-yilda u yana ikkinchi mutaxassislikni olish maqsadida Samarqand qishloq xo'jaligi texnikumini qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirib, 1938-yilda texnikumni a'lo baholarga tugatadi.

1938-yilning may oyida Samarqand viloyati Samarqand tumani harbiy komissariyati tomonidan harbiy xizmatga chaqiriladi. U Oryol Harbiy okrugi tarkibidagi Kutuzov nomidagi 503-qiruvchi-bombardimonchi aviatsiya polkida harbiy xizmatni boshlaydi.

59

SAMO Fond 33, Opis 793756, Delo 50



Sidqidildan qilgan xizmatlari, harbiy aviatsiyaga bo‘lgan qiziqishi, berilgan vazifaga nisbatan vijdonan yondoshuvi tufayli qo‘mondonlikning nazariga tushadi. Qisqa muddatlarda xizmatda erishgan yutuqlari, qiziqishi va tirishqoqligini hisobga olib, qo‘mondonlik rota starshinasi Xudaybergen Mamutovga ishonch bildirib Krasnoyarsk harbiy aviatsiya bilim yurtiga o‘qish uchun yo‘llanma beradi. Kirish imtihonlarini muvafaqqiyatli topshiradi va 1938-yilning noyabridan 1940-yilning 11-sentyabrigacha Krasnoyarsk aviatsiya bilim yurtida nazariy xamda amaliy bilimlarini oshiradi[60]. Harbiy bilim yurtini bitirib, kichik leytenant harbiy unvonida, yana qadrdon 206 – shturmchi aviatsiya diviziyasi tarkibidagi 503-sonli xujumkor aviapolki tarkibidagi 1-aviatsiya eskadriliyasida aviaqurilma mexanigi lavozimida harbiy xizmatni davom ettiradi.


ВСТУПИЛ НА СЛУЖБУ В РККА


Мамутов Худайберган


21. Места службы и должность (или род занятий вне В...)

32. Домашний адрес

35. В старой армии ... лет

Последний чин

36. Служба в бел. и иностр. армиях

37. Особые отметки

Aviatsiya kichik leytenanti Maxmudov Xuday Bergenning shaxsiy yig‘ma jildidan ko‘chirma nus’ha.

[60] Kichik leytenant Xudaybergen Mamutovning Podolsk shahridagi Rossiya Mudofaa vazirligi arxivida saqlanayotgan shaxsiy varaqasidan.

1941-yilning 22-avgustida Xuday Bergen Maxmudov xizmat qilayotgan Voronej shahrida joylashgan Kutuzov nomidagi 503-qiruvchi bombardimonchi aviatsiya polki 1-zahira havo brigadasi komandirining 0053-sonli buyrug'i bilan Kutuzov nomidagi 503-sonli shturmchi aviatsiya polki deb qayta nomlanadi. Li-2 samolyotlaridan tarkib topgan polk yana 20 dona IL-2 rusumidagi shturmchi samolyotlarini qabul qilib olgach, frontga safarbar etiladi. 503-aviapolk Smolensk, Moskva mudofaasi va Stalingrad osmonidagi havo janglarida ishtirok etadi.

Stalingrad fronti, 3-havo armiyasi, 503-hujumkor aviapolkining aviatsiya kichik leytenanti Maxmudov Xuday Bergen 1941-yilning sentyabridan 1942-yil 12-dekabri oralig'ida 8 ta jangovar samolyotni sozlab uchishga tayyorladi. Ushbu samolyotlar uning sa'y, harakatlari, professional darajada yondoshuvi tufayli 228 marotaba jangovor parvozlarni muvofaqqiyatli amalga oshirganligi, nosozliklari aniqlanmaganligi sababli polk komandiri polkovnik Sevenshteynning 1942-yilning 13-dekabridagi 1/n -sonli buyrug'i bilan ***"Jangovar xizmatlari uchun" medali*** bilan mukofotlanadi[61].

Kichik leytenant Xuday Berdi Maxmudov mexaniklikdan yetakchi havo o'qchisi lavozimiga o'tkaziladi va jangovar operatsiyalarda ekipaj tarkibida beayov havo janglarida ishtirok etadi.

1943-yilning 23-avgustida qo'mondonlikning jangovor topshiriqlarini o'z vaqtida sifatli va samarali bajarganligi, 1943-yilning may oyidan buyon Shimoliy Kavkaz xamda janubiy front bo'ylab Il-2 shturmchi samolyoti bort o'qchi-radisti sifatida 23 marotaba jangovor parvozlarni muvofaqqiyatli amalga oshirganligi, natijada dushmanning 7 tanki, harbiy yuk ortilgan 11 ta avtotransporti, 3 zenit qurilmasini yakson qilganligi, bitta Bf rusumida 109 Messershmitt jangovor samolyotini, 300 dan ortiq soldat va ofitserlarini yer tishlatgan. Havo janglari vaqtida o'zini bosiq, mard va jasur ofitser, o'z kasbining ustasi sifatida dushmanga o'z vaqtida kerakli zarbani mohirona bera olganligi uchun ***"Qizil yulduz"*** *xamda* ***Ikkinchi darajali " Vatan urushi" ordeni*** *bilan mukofotlanadi.*

U 20.07.1943-yil havo janglarida dushmanning aerostati xamda kuzatuvchisini yo'q qiladi;

25.07.1943-yil 277.9 tepaligi uchun bo'lgan havo janglarida dushmanning Bf rusumidagi 109 Messershmitt samolyotlari yordamida 6 marotaba havodan qilgan hujumini qaytaradi;

02.08.1943-yil Pervomaysk rayonini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan havo janglarida ekipajga qarshi 3 ta ME-109 rusumidagi dushman samolyoti har tomondan hujumga o'tadi. Tengsiz jangda Mamutov yelkasi va qo'l oyog'idan jarohatlangan bo'lsada, dushmanning ketma-ket qilgan hujumlarini qaytardi. Samolyotning aerodromga qo'nishiga erishdi.

503-hujumkor aviapolkining yetakchi havo o'qchisi (shturman) aviatsiya kichik leytenanti Mamutov Xudoybergen 7-avikorpus komandiri, polkovnik Arevonning 4/N -sonli buyrug'i bilan ***Birinchi darajali "Vatan urushi" ordeni*** bilan mukofotlanadi[62].

***Aviatsiya kichik leytenanti Xuday Bergen Mamutovnng so'nggi jangi va jasorati.*** Bu vaqtda Mamutov katta leytenant Ivan Lavrentyevich Fedyakov komandirlik qilayotgan eskadrilyada xizmat qilardi. Qolaversa, aynan Fedyakov komandirlik qilgan IL-2 shturmchi samoletda havo o'qchisi-radist bo'lib xizmat qilardi.

1943-yilning 7-sentyabrida katta leytenant Fedyakov eskadriliyasi dushmanni shturm bilan ishg'ol qilish xaqidagi navbatdagi jangovor buyruqni oladi.

Buyruq mazmuniga ko'ra Staraya Laspa aholi punkti hududida dushmanning qarshi xujumga o'tish uchun ko'plab texnika, askar va ofitserlari to'planganligi, katta leytenant Fedyakov

61 SAMO Fond 33, Opis 686044, Delo 19
62 SAMO 33, Opis 682526, Delo 1448

boshchiligidagi eskadriliyaga esa ularni havodan turib yo‘q qilish vazifasi yuklatilgan edi. Fedyakov eskadriliyasi dushman ustidan razvedka qilib uchib o‘tadi, shundan so‘ng aniq nishon bo‘yicha dushman ustiga bomba yog‘dira boshlaydilar. Eskadrilya dushmanni yanada aniqroq nishonga olib, zarba berish maqsadida dushman zenitkalari o‘q yomg‘iri ostida, qo‘rquv bilmay juda pastlab uchardilar. Samolyotlar hattoki yerga 10 metrgacha bo‘lgan masofaga pastlab uchib dushmanga aniq va keskin zarba berardi.

Lekin ushbu maharobada dushman zenit batareyalaridan otilgan o‘qlar Fedyakov boshqarayotgan shturmchi samolyotga tegib samoletga jiddiy zarar yetkazadi. Dushman o‘qidan Mamutov yaralanadi. Shunga qaramay dushman ustiga o‘q yomg‘iri yog‘dirishdan to‘xtamaydi. Komandirning bir necha marotaba parashyutdan o‘zingni tashla - degan buyrug‘iga qaramay so‘nggi nafasigacha namis kazzoblariga qarshi kurashadi. Samolet o‘t-olov ichida qoladi. Bundan na bort komandiri Fedyakov, na uning havo o‘qchisi Mamutov o‘zini zarracha yo‘qotishmaydi. Qanchalik harakat qilinmasin, yonayotgan samolyotni boshqarish og‘irlashardi. Samolyot yerga qarab sho‘ng‘iy boshlaydi. Shunga qaramay komandir o‘zini yo‘qotmay, yonayotgan samolyotni arang boshqarib, kuch bilan shturvalni dushman kuchlari yig‘ilib turgan joyga burib, samoletni nemis tanki tomon yo‘naltiradi. Samolyot tankka zarb bilan kelib uriladi. Natijada qattiq portlash yuz berib, dushmanning ko‘plab tank va avtomashinalari yong‘in ichida qoladi. Dushman tanklari o‘zlarining snaryadlarining portlashi oqibatida yer bilan yakson bo‘ladi.

O‘zlarini qurbon qilish evasiga dushmanga katta talofat yetkazadi. Bu bilan ular Gostelloning qahramonligini takrorladilar.

Ko‘p o‘tmay Starya Laspa aholi punkti qo‘shinlarimiz tomonidan ozod etiladi. Fedyakov va Mamutovlarning jangovar do‘stlari ular qahramonlarcha halok bo‘lgan joyga kelishadi. Samolyot portlagan joyda 3 nemis tanki va bir qancha avtomashinalarning yaroqsiz parchalarini ko‘rishadi. Ular Stalin lochinlari bo‘lmish, jangovar do‘stlari: qahramonlarcha halok bo‘lgan eskadrilya komandiri katta leytenant Fedyakov Ivan Lavrentyevich xamda ekipaj havo o‘qchi-radisti kichik leytenant Xuday Bergen Mamutovning xoklarini harbiycha izzat-ikrom bilan Ukrainaning Donesk viloyati, Telman tumani, Staraya Laspa qishlog‘i qabristoniga dafn etishadi.

Mana urushning tugaganiga xam 78 yil bo‘layapdiki, uning jarohatlari, urush qahramonlarining yodi xali-xanuz unutilgani yo‘q, aksincha vaqt o‘tgani sari qalbimizga chuqurroq kirib bormoqda. Zero ularni eslash, xotirlash bizning yurtimiz va xalqimiz uchun allaqachonlar ulug‘ va mo‘tabar qadriyatga aylanib bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi, aviatsiya kichik leytenanti,

IL-2 havo o‘qchi-radisti Xuday Berdi Mamutov xamda uning komandiri aviatsiya katta leytenant Ivan Fedyakov shaxsiga oid ayrim xujjatlarning nus’halari:


ИМЕННОЙ СПИСОК









123 130

- 3 -

Самолет тов. ФЕДЯКОВА стал мало послушным, но воля героя направила его на скопление танков и автомашин врага. Силой энергии ИЛ-2, управляемый твердой рукой мужественного летчика, сбил башню вражеского танка и загорелся упав в расположении врага. Погиб товарищ ФЕДЯКОВ смертью ГЕРОЯ, повторив мужественный поступок бессмертного ГАСТЕЛЛО. На месте падения самолета вспыхнул пожар и последовали взрывы- это рвались вражеские танки. -на собственных боеприпасах.

Вскоре после штурмовки населенный пункт СТАРАЯ ЛАСПА был занят нашими войсками. Боевые друзья и командование полка выехало на место гибели тов. ФЕДЯКОВА для похорон ГЕРОЯ. Прах мужественного летчика и его воздушного стрелка младшего лейтенанта МАМАТОВА был похоронен с почестями. На месте гибели остались скелеты трех сожженных танков врага и обломки автомашин. Так погиб смертью храбрых неустрашимый Сталинский Сокол -Командир эскадрильи - старший лейтенант ФЕДЯКОВ Иван Лаврентьевич.

За отличное выполнение боевых заданий Командования на фронте борьбы с немецкими захватчиками, за беззаветную храбрость, мужество и ГЕРОИЗМ -тов. ФЕДЯКОВ ДОСТОИН ВЫСШЕЙ ПРАВИТЕЛЬСТВЕННОЙ НАГРАДЫ- ЗВАНИЯ "ГЕРОЯ СОВЕТСКОГО СОЮЗА-" ПОСМЕРТНО.

КОМАНДИР 805 ШТУРМОВОГО АВИАЦИОННОГО ПОЛКА-МАЙОР /КАЛЫГИН/

"2" октября 1943 года.

Qo‘mondonlikning jangovor topshiriqlarini a`lo darajada bajarganligi, nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mardligi, jasorati va qahramonligi uchun aviatsiya katta leytenanti Fedyakov Ivan Lavrentyevich eng oliy davlat mukofoti Sovet ittifoqi qahramoni unvoni va Oltin yulduz medali bilan aviatsiya kichik leytenanti Mamutov Xuday Berdi esa "2-darajali Vatan urushi ordeni" bilan mukofotlandi o‘limidan so‘ng.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. SAMO Fond 33, Opis 793756, Delo 50
2. Kichik leytenant Xudaybergen Mamutovning Podolsk shahridagi Rossiya Mudofaa vazirligi arxivida saqlanayotgan shaxsiy varaqasidan. SAMO Fond 33, Opis 686044, delo 19.
12. SAMO Fond 33, Opis 686044, Delo 19
13. SAMO 33, Opis 682526, Delo 1448
14. SAMO Fond 58, Opis 18001, Delo 727